

№11-AMALIY ISHI

Mavzu: VoIP texnologiyalari

Ishning maqsadi: Talabalarga VoIP texnologiyalari bilan Amaliy ishlashni o'rgatish.

Ish uchun kerakli jihozlar: kompyuterlar, tarmoq uchun kerakli qurilmalar va dasturiy vositalar.

Qisqacha nazariy ma'lumot. Kompyuterlar Internet orqali bir-birlariga ma'lumotni uzatishga qodir. E-pochta (e-mail) bularning eng sodda misolidir. Chunonchi, tovushni ham raqamli ma'lumotga aylantirish hamda uni xuddi boshqa ma'lumot turlari kabi kompyuterlarning bir-birlari orasida uzatilishi ham mumkin. IP-telefoniya — bu ma'lumotni uzatish tarmog'i bo'ylab tovushni uzatishdir. Bunday tovush uzatishning an'anaviy holatidagi analogli telefon bog'lanishining asosiy farqli joyi shundaki, tovushni raqamli signallarga aylantirib, uni ma'lumot ko'rinishida uzatish demakdir. IP-telefoniya (VoIP qisqartma ingliz so'zidan olingan bo'lib, "Voice over Internet Protocol" - ya'ni "Tovushni Internet bayonnomasi bo'ylab uzatish" degan ma'noni bildiradi) - Internet bilan birgalikda hayot tarziga kirib borayotgan texnologik yangilik hisoblanadi. IP-telefoniyaning negizida telefon so'zlashuvlarini an'anaviy telefon so'zlashuvidan ko'ra 2-3 martaga arzonlashtiruvchi texnologiyalardan hisoblanadi. Uning boisi shundaki, tovush signalining asosiy qismi Internet tarmog'ida raqamli ko'rinishda o'tadi. Shuning uchun ham an'anaviy telefon liniyalarida sodir bo'ladigan xizmatdan ko'ra ozroq xarajat va sifatli aloqa xizmatlari imkoniyatini yaratib beradi.

Texnologiyasi. An'anaviy telefon so'zlashuvi tushunchasi mazmunida – ikki abonentning to'g'ridan-to'g'ri muloqotga kirishi uchun imkoniyat yaratilishi ifodalanadi. An'anaviy telefon xizmatida turli mamlakatlardagi operatorlarning halqaro kommutasiya markazlarida tashkil etilgan qattiq belgilangan marshrutning maxsus ajratilgan kanallari yordamida ma'lumot (yoki so'zlashuv) o'tadi.

Topshiriqlar:

1. IP telefoniya haqida ma'lumot bering?
2. IP televedeniya haqida ma'lumot bering?
3. VoIP texnologiya orqali tovushli ma'lumotlar qanday uzatiladi?
4. VoIP texnologiyasi yordamida raqamli audio aloqalar qanday uzatiladi?
5. VoIP texnologiyasi yordamida raqamli audio aloqalar qanday dasturiy vositalar yordamida uzatiladi?